

U O'K:72.725

**SAVDO DO'KONLARI INTERYERIDA RANGLARNI TANLASH:
TOVARLARNI JOYLASHTIRISH ORQALI RANG MUHITINI SHAKLLANTIRISH****Otamurodova Kamola Sobirjon qizi***Magistr (Toshkent arxitektura-qurilish universiteti)*

Annotatsiya: Maqolada do'kon interyerida ranglardan foydalanishning xaridorlar psixologiyasi va xulq-atvoriga ta'siri tahlil qilinadi. Issiq va sovuq ranglarning inson ruhiyati va fiziologiyasiga ta'siri, rang uyg'unligi, kontrast va yoritishning savdo samaradorligidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ranglarni to'g'ri tanlash va joylashtirish orqali do'konning jozibadorligini oshirish hamda xarid jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish yo'llari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: rang psixologiyasi, do'kon interyeri, chakana savdo, rang uyg'unligi, issiq va sovuq ranglar, kontrast, yoritish, spektr, rang bloklash.

Аннотация: В статье анализируется влияние цветового оформления интерьера магазина на психологию и поведение покупателей. Рассматривается воздействие тёплых и холодных цветов на эмоциональное и физиологическое состояние человека, а также роль цветовой гармонии, контраста и освещения в повышении эффективности продаж. Подчеркивается значение правильного подбора и размещения цветов для привлечения внимания покупателей и формирования благоприятной торговой среды.

Ключевые слова: психология цвета, интерьер магазина, розничная торговля, цветовая гармония, тёплые и холодные цвета, контраст, освещение, спектр, цветовое блокирование.

Abstract: This article examines the impact of color design in retail interiors on consumer psychology and behavior. It analyzes the effects of warm and cool colors on customers' emotional and physiological states, as well as the role of color harmony, contrast, and lighting in improving sales performance. The study highlights the importance of proper color selection and placement in creating an attractive retail environment and influencing purchasing decisions.

Keywords: color psychology, retail interior, retail trade, color harmony, warm and cool colors, contrast, lighting, spectrum, color blocking.

KIRISH

Rang harid faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biridir.

Do'kon interyerining bezatilishi potensial xaridorlarni jalb qilishi yoki, aksincha, ularni uzoqlashtirishi, ularning kayfiyati, hissiyotlari va mahsulotlarni idrok etishiga ta'sir qilishi mumkin.

Mavjud turli tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, do'kon interyeridagi ranglar xaridorlar psixologiyasiga va ularning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ta'rifga ko'ra, rang vizual idrok etishning xususiyati bo'lib, u kuzatuvchiga spektr¹ tarkibida farq qiluvchi rang stimullarini (nurlanishlarni) tan olish imkonini beradi[1]. Rang do'konning xotirada qolishida muhim rol o'ynaydi. Rang savdo nuqtasining firma belgisi sifatida xizmat qilishi va uni raqobatchilar orasida tanilishini oshirishi mumkin. Rangni doimiy ishlatish va tez-tez o'zgartirmaslik tavsiya etiladi. Ranglarni uyg'unlashtirish ham muhim. Do'konda uchdan ortiq asosiy ranglardan foydalanish qat'iyan tavsiya etilmaydi.

Asosiy qism. Ranglar issiq va sovuq ranglarga bo'linadi, bu ularning ko'z tomonidan qanday qabul qilinishiga bog'liq.

Issiq ranglar - qizil, zarg'aldoq, sariq va ularning ohanglari. Ular olov, quyosh, issiqlik bilan bog'lanadi va energiya, faollik, quvonch hissini beradi.

Sovuq ranglar - yashil, ko'k, binafsha va ularning ohanglari. Ular suv, osmon, muz bilan bog'lanadi va tinchlik, ishonch, professionallik hissini uyg'otadi.

Issiq va sovuq ranglar xaridorlarga turlicha ta'sir qiladi:

Issiq ranglar diqqatni jalb qiladi va harakatga rag'batlantiradi. Ular yuqori savdo tezligi va katta tashrif buyuruvchilar oqimiga ega do'konlar uchun mos keladi. Biroq bu ranglar uzoq vaqt davomida xona ichida bo'lishda bezovtalik va charchash hissini uyg'otishi mumkin.

Neytral va sovuq ranglar tinchlantiradi va diqqatni kuchaytiradi. Ular tinch muhitga ega va mahsulotlarni diqqat bilan tanlashni talab qiladigan do'konlar uchun mos. Shu bilan birga, sovuq ranglarda bezatilgan do'konlar kontrast va yorqinlik yetishmasa, befarqlik va zerikish hissini uyg'otishi mumkin.

Qizil - qo'zg'otuvchi, ilituvchi, serharakatlikka undovchi, singuvchi. Butun organizmni serharakatlantiradi, qon bosimini oshiradi, nafas olishni tezlashtiradi.

Zarg'aldoq - qizil singari, unga o'xshash, ammo sustroq ta'sir etuvchi.

Sariq - fiziologik jihatdan optimal, charchatmaydigan, nerv va ko'rish faoliyatini stimullashtiruvchi.

Yashil - fiziologik jihatdan optimal, ko'rish organiga eng tanish, orombaxsh, qon bosimini kamaytiradi, kapillyarlarni kengaytiradi, tinchlantiruvchi, mushak harakatlarini qo'zg'atuvchi va hokazo.

Havorang - tinchlantiruvchi, mushaklar tarangligi va qon bosimini pasaytiradi, tomir urushini maromlashtirib nafas olishni sekinlashtiradi.

Ko'k - tinchlantiruvchi, ta'siri asta-sekin siqilishga, ezilishga eltib boradi. Insonning fiziologik tuzilishi tizimi funksiyalarining to'silishiga olib keladi.

Binafsha - qizil va ko'k ranglar effektini o'zida mujassamlashtiradi. Nerv tizimiga siquvchi, ezuvchi ta'sir qiladi.

Umuman olganda, turlicha ochargan ranglar tonlari, masalan qizil, sariq, ko'k, yashil, zarg'aldoq va hokazo ranglarning oq qo'shilib yoki o'zaro aralashmasidan hosil bo'lgan tonlar kishi ruhiyatiga murakkablashgan, nozik tuyg'u chaqiradi va turlicha emotsiya qo'zg'atadi. Masalan, tongdagi osmon o'ziga xos va kechki namozshom osmoni kishiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi. Bunda osmondagi sodir bo'layotgan nyuansli ranglar majmuasini farqlay olgan holda kishining kayfiyati o'zgaradi. Shuningdek, har bir toza yoki aralashgan rang odam ongida assotsiativ tuyg'ularni chaqiradi[2].

¹ Spektr (lot. spectrum — "ko'rinish") kontinuum ichida o'zgaruvchi xususiyatlar to'plamidir. Optikadan bir misol qilib kamalakni olish mumkin: undagi ranglar (yorug'lik xususiyatlari) uzluksiz o'zgarib boradi.

Ranglarning obyektiv xususiyatlari va ular chaqiradigan reaksiyalar:

1. Rang qancha yorqin va to'qroq bo'lsa, unga psixik reaksiya aniqroq, intensivroq va turg'unroq bo'ladi;

2. Ranglar murakkab, xiraroq, o'rta yorqin bo'lsa, kishi diqqat-e'tiborini (reaksiyasi) kamroq, turg'unsozroq jalb qiladi;

3. Ranglarning haroratligiga, og'ir-yengilligiga, akustik sifatlariga e'tibor o'rtacha yoki umuman kam yengil qaraladi;

4. Ranglarni qabul qilish va rang didi odamlarda turlicha bo'lib, ya'ni ta'm, hid bilish, sezish, his qilish kabilarga assotsiativ reaksiyasi bir-biridan farqlanadi, qaysiki ular insonning maxfiy ichki kechinmalari va sezgi organlari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi;

5. Sariq va yashil ranglar eng boy va xilma-xil reaksiyalarni chaqiradi. Chunki ular tabiatda boshqa ranglarga qaraganda ko'proq mavjud bo'lib, ularning xilma-xilligi kishi ruhiyatiga singib qolganligi tufayli ularning assotsiativligi ham boy bo'ladi[2].

Xaridor e'tiborini do'konga jalb qilishning samarali usullaridan biri - kontrastlar o'yini. Kontrast - bu ikki yoki undan ortiq rangning yorqinligi, to'qligi yoki ohangidagi farqdir. Kontrast interyerning muayyan elementlarini ajratib ko'rsatishga, aksentlar yaratishga, makonni zonalarga ajratishga va rang effektini kuchaytirishga yordam beradi.

Do'kon dizaynida ikkita xavf mavjud: uni boshqalarga o'xshatish va aksincha, ixtiro qilish maqsadi bilan juda uzoqqa ketish. Hududlarda ko'plab dizaynerlar, afsuski, chakana savdo arxitekturasining eng yaxshi namunalari bilan tanishish, zamonaviy dizayndan muvaffaqiyatli foydalanishni ko'rish uchun yetarli tajriba va imkoniyatlarga ega emaslar. Buyurtma olgandan so'ng, ko'pchilik o'z shaharlarida namuna tanlaydi va eng katta va eng yangi do'konlarni ko'rish uchun boradi ko'p hollarda bu esa yetarli bo'lmaydi. Do'konning ichki qismidagi dizayn g'oyasi, shubhasiz, qiziqarli va o'ziga xos bo'lishi kerak. Ammo uning o'ziga xosligi - ham joylashuv, ham dizayn - funksionallikka zarar keltirmasligi kerak va xaridorlar do'konga tashrif buyurishda noqulaylik his qilmasligi kerak. Kirish joyidan boshlab xaridor do'kon o'z yoshidagi odamga, uning daromad darajasiga mo'ljallanganligini, do'kon uning istaklari va muammolarini mukammal qondirishini his qilishi kerak[3].

Arxitektorlar va dizaynerlar oq rangni muhim detallarni namoyish qilish uchun yaxshi fon deb hisoblaydilar, chunki oq devorlar turli sathlarning soyalarini yaxshi qabul qiladi va reflekslar orqali ularga moslashadi. Ammo oq interyer yetarli darajada jozibador bo'lmisligi yoki umuman bo'sh ko'rinishi xavfi mavjud. Bu "Oq va Qora" do'koniga tashvish tug'dirmasligi kerak, chunki uning assortimentlari minimalistik klassik uyg'unlikni qadrlaydiganlar uchun mo'ljallangan. Lekin ko'plab xilma-xillikni yaxshi ko'radigan va emotsional odamlar "mutlaq poklik va tartib rangi"ning tartibga soluvchi ta'sirini his qilib, doimiy xaridlardan voz kechishlari mumkin. Shuning uchun neytral interyerda xaridorlarning diqqatini tortish va qiziqishini uyg'otish uchun, zarur rang muhitini yaratadigan ranglar bo'yicha tovarlarni joylashtirish zarur[4].

Tovarlarni joylashtirishda rangdan foydalanishning asosiy prinsiplari:

- Rang bloklash (Color Blocking): Bir xil rangdagi mahsulotlarni bir blokga jamlash yorqin, dinamik zonalar yaratadi, mahsulotlarni topishni osonlashtiradi va e'tiborni jalb qiladi.

- Tematik zonalar: Tematikaga mos rang yechimlarini yaratish (masalan, “romantik” yoki “biznes” zonolari) xaridorni yo‘naltirishga yordam beradi va qulay muhit yaratadi.
- “O‘ng qo‘l” prinsipi: Xaridor harakat yo‘nalishining o‘ng tomonida rangli va jozibali mahsulotlarni joylashtirish savdoni oshiradi.
- Qabul qilishga ta‘sir: Mahsulot ranglarini yoritish bilan to‘g‘ri uyg‘unlashtirish xaridor kayfiyatini yaxshilaydi va ularni do‘konda uzoqroq vaqt qolishga rag‘batlantiradi.

Yoritish - muhim omildir. Yorug‘lik manbalari ranglarning yaxlitligini saqlab qolishi kerak. Issiq yoritish ranglarni yumshoqroq ko‘rsatadi, sovuq yoritish esa ularni yanada aniq va tiniq qiladi. Sozlanadigan proyektorlar yordamida ayrim mahsulotlarni ajratib ko‘rsatish yoki xaridorlar e‘tiborini strategik tarzda yo‘naltiruvchi kontrast yaratish mumkin.

Chakana savdoda ranglar doirasi - bu ranglarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha vizual qo‘llanma hisoblanadi. U asosiy ranglarni (qizil, ko‘k, sariq), ikkilamchi ranglarni (yashil, zarg‘aldoq, binafsha) va ularni aralashtirish orqali yaratilgan uchlamchi soyalardan iborat (1-rasm). Chakana savdo vitrinlarida ranglar doirasidan foydalanishda bir nechta yondashuvlar mavjud:

1. Analog ranglar - doirada yonma-yon joylashgan ranglar, uyg‘un tinchlantiruvchi ko‘rinish yaratadi.
2. Komplementar ranglar - doiraning qarama-qarshi ranglari, kuchli kontrast va energiya yaratadi.
3. Monoxrom sxemalar - bir xil rangning turli soyalari, nafislik va birlik hissi yaratadi.



1-rasm. Rang palitrasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Elmurodov S.S. SAVDO BINOLARINI LOYIHALASH / O‘QUV QO‘LLANMA, 2024.
2. Э.М.Мухамадиев, Ш.Х.Тугизов, К.Б.Юнусова “Дизайн асослари”. Касб-хунар коллежлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДАҚИ, 2017 й.
3. Кира Канаян, Рубен Канаян, Армен Канаян “ПРОЕКТИРОВАНИЕ МАГАЗИНОВ И ТОРГОВЫХ ЦЕНТРОВ”, Москва, 2008 г.
4. Saidov A.A. “ERGONOMIKA”, Darslik, Toshkent-2018.
5. Matniyazov Z.E., “Rangshunoslik va kompozitsiya” O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2017 y.